

PUDRAT SHARTNOMASI

«Peshku Real Trassa» MCHJ, keyingi o'rinlarda "Pudratchi" deb yuritiladi. O'zining Nizomi asosida ish yurituvchi raxbari N.Xalimova, bir tomondan va Gijduvon tuman xokimligi xuzuridagi Obodonlashtirish boshqarmasi, keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi, o'zining Nizomi asosida ish yurituvchi raxbari M.A.Umarov ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

1. SHARTNOMANING PREDMETI

1.1 Ushbu shartnoma buyicha "Pudratchi" «Buyurtmachi»ning buyurtmasiga va tuzilgan loyiha smeta hujjatlariga asosan Gijduvon tuman xokimligi xuzuridagi Obodonlashtirish boshqarmasi balansida bo'lgan Armechan MFY Rabotoyim qishlog'i ichki yo'llarini asfaltlashtirib joriy ta'mirlash ishlari «Buyurtmachi» esa bajarilgan ishlarni qabul qilib olishni hamda to'lovni amalga oshirishni o'z zimmlariga oladilar.

1.2. Ushbu shartnomaning umumiy summasi **965 005 000** so'mni tashkil etadi.

2.SHARTNOMA BO'YICHA KELISHUV NARXLAR

2.1."Buyurtmachi" tomonidan taqdim qilingan hujjatlarga asosan ta'mirlash ishlarining qiymati **965 005 000 (To'qqiz yuz oltmish besh million besh ming)** so'mni tashkil qiladi.

2.2. "Pudratchi" tomonidan taqdim qilingan kafolat xatiga asosan ta'mirlash ishlari Buyurtmachi tomonidan shartnoma umumiy qiymatining 30 % miqdorida avans ko'chirib berilgan kundan boshlab **10 ish kunida** bajarish va bajarilgan ishlar to'g'risida tasdiqlovchi xujjatlarni taqdim qiladi.

3.ISHLARNI BAJARISH

3.1 Buyurtmachi qurilish maydonida o'z vakilini – texnik auditorni tayinlaydi, u Buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlar sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalaniladigan materiallar va asbob-uskunalarining shartnoma shartlariga va ish hujjatlariga muvofiqligini tekshiradi.

3.2. Texnik auditor ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to'siqsiz tanishish huquqiga egadir.

3.3. Pudratchi texnik auditorni ishlash uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik auditor Pudratchi tomonidan o'tkaziladigan qurilish maydonida ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo bo'luvchi masalalarni hal qilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.

3.4. Pudratchi ishlarni bajarish loyihasiga va mazkur shartnomaning II bo'limida ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiqashtirilgan o'z rejasi va jadvaliga binoan obyektida ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

3.5. Pudratchi obyektida ishlarni olib borish tartibini davlat arxitektura-qurilish nazorati organlari bilan kelishadi va unga rioya etilishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

3.6. Qurilish maydonida umumiy tartibni ta'minlash Pudratchining vazifasi hisoblanadi.

3.7. Buyurtmachi qurilish maydonini berish to'g'risidagi dalolatnoma bilan bir vaqtda Pudratchiga ortiqcha tuproq va qurilish axlatini joylashtirish va yetishmayotgan tuproqni qazib olish uchun joy ajratish to'g'risidagi hujjatlarni beradi.

3.8. Buyurtmachi qurilish maydonini berish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda qurilish maydonini belgilash bo'yicha ishlarni bajarish va ob'ektni privyazka qilish uchun Pudratchiga geodeziya nuqtalari, ularning koordinatlari va balandlik belgilarini taqdim etadi.

3.9. Pudratchi geodeziya nuqtalariga, liniyalar va darajalarga nisbatan ob'ektning to'g'ri va

zarur tarzda belgilanishi, shuningdek balandlik belgilari, o'lchamlari va bo'lish o'qlarining muvofiqligi to'g'ri joylashganligi uchun javob beradi.

Agar ishlarni bajarish jarayonida amalga oshirilgan bo'lish va geodeziya ishlarida xatolar aniqlansa, Pudratchi Buyurtmachi bilan kelishgan holda tegishli tuzatishlarni o'z hisobidan kiritadi.

3.10.. Pudratchi geodeziya bo'lish ishlarida o'rnatiladigan koordinatlar va balandliklar, geodeziya belgilarining joylashishi sxemalari va jadvallarini saqlaydi, ishlarni bajarish davrida va ular tugallangandan keyin ularni dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachiga beradi.

3.11. Qurilish maydonida ishlarni bajarish davrida kommunikatsiyalarni vaqtincha ulashni va ulash nuqtalarida yangidan qurilgan kommunikatsiyalarni ulashni Pudratchi amalga oshiradi.

3.12. Pudratchi o'zi tomonidan qurilishda qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiyalar va tizimlar sifati loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan spetsifikatsiyalarga, texnik reglamentlarga yoki standartlarga muvofiq bo'lishini hamda ularning sifatini tasdiqlovchi tegishli sertifikatlarga, texnik pasportlarga yoki boshqa hujjatlarga ega bo'lishini kafolatlaydi.

3.13. Alohida mas'uliyatli konstruksiyalar va berkitiladigan ishlar tayyor bo'lishiga qarab ularni qabul qilish boshlanishidan 5 kun oldin Pudratchi Buyurtmachini va «Davarxitektqurilishnazorat» inspeksiyasini yozma ravishda xabardor qiladi.

3.14. Qabul qilinadigan konstruksiyalar va ishlarning tayyorligi Buyurtmachi va Pudratchi tomonidan mas'ul konstruksiyalarni oraliq qabul qilish dalolatnomalari hamda ularning «Davarxitektqurilishnazorat» inspeksiyasi bilan kelishgan shartlarida berkitiladigan ishlar tekshiruvini dalolatnomalari bilan tasdiqlanadi.

3.15. Pudratchi Buyurtmachining ishlarni bajarish daftariga kiritilgan yozma ruxsatnomasidan keyingina keyingi ishlarni bajarishga kirishadi.

3.16. Agar berkitiladigan ishlar Buyurtmachining tasdig'isiz bajarilgan bo'lsa yoki u bu haqda xabardor qilinmagan bo'lsa, yoki kechikib xabardor qilingan bo'lsa,

u holda uning talabi bo'yicha Pudratchi Buyurtmachining ko'rsatmasiga muvofiq berkitiladigan ishlarning istalgan qismini o'z hisobidan ochishga, so'ngra esa uni tiklashga majburdir.

Pudratchi Buyurtmachining manfaatlariga jiddiy ta'sir qilmaydigan ish hujjatlaridan mayda chetga chiqishlarni Buyurtmachining roziligisiz amalga oshirsa, u agar bularning qurilish sifatiga ta'sir etmaganligini isbotlasa javobgar hisoblanmaydi.

3.17. Pudratchi qurilish maydonini va unga tutash ko'cha polosasini, shu jumladan yo'l uchastkalari va yo'laklarni supurib-sidiradi va ozoda saqlaydi, ta'mirlash davrida maydondan qurilish axlatini Buyurtmachi tomonidan ko'rsatilgan joyga chiqarib tashlaydi.

3.18. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallangungacha Pudratchi ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarning borishi, Buyurtmachi va Pudratchining o'zaro munosabatlarida ahamiyatga ega bo'lgan hollar va holatlar (ishlarning boshlanishi va tamom bo'lishi sanasi, materiallar, asbob-uskunalar berilishi, xizmatlar ko'rsatilishi sanasi, ishlarning qabul qilib olinishi, o'tkazilgan sinovlar, materiallar o'z vaqtida yetkazib berilmasligi bilan bog'liq to'xtab qolishlar, qurilish texnikasining ishdan chiqishi to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek qurilishni tugallashning uzil-kesil muddatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlar) aks ettiriladi.

Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining qaydlaridan qoniqmasa, u holda ishlarni bajarish daftarida o'z fikrini bayon qiladi.

Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 30 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

4. TO'LOV SHARTI VA TARTIBI

4.1 Ushbu shartnomaning umumiy narxi **965 005 000** so'mni tashkil etadi. «Buyurtmachi» ta'mirlash ishlarini boshlash uchun «Pudratchi»ga shartnoma narxining 30 % yoki **289 501 500** so'm miqdorda oldindan to'laydi va bu oldindan to'lov 2022 yilning noyabr oyida amalga oshiriladi. «Buyurtmachi» tomonidan yakuniy to'lov «Pudratchi» ishlar bajarilganligini tasdiqlovchi hujjat taqdim qilgandan so'ng amalga oshiriladi. Yakuniy to'lovning miqdori **675 503 500** so'mni, ya'ni, kelishilgan summaning 70 foizini tashkil etadi va bu yakuniy to'lov 2022 yil « 31 » - dekabrgacha amalga oshiriladi.

4.2.«Buyurtmachi» to'lovni pul o'tkazish yuli bilan amalga oshiradi.

4.3.«Pudrat» tashkiloti tomonidan shartnomada ko'rsatilgan summadan oshikcha bajarilgan ishlar uchun «Buyurtmachi» tomonidan to'lovlar amalga oshirilmaydi.

V.TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI

5.1. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon: ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi;

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa qonun hujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi.

5.2. Mazkur shartnomaga tegishli ilovalarda ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rioya qilmaganligi, o'z vaqtida moliyalashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim. Penya to'lanishi Buyurtmachini shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

5.3. Shartnomaga muvofiq bajarilgan ishlar hajmini tasdiqlashdan asossiz ravishda bosh tortganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga o'zi tasdiqlashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 10 foizi miqdorida jarima to'laydi.

5.4. Pudratchi obyektini o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,5foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi obyekt shartnomaviy joriy qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

Buyurtmachi tomonidan topilgan nuqsonlar va kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmagani uchun Pudratchi buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi kerak.

Penya to'lash Pudratchini ishlarni bajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

5.5. Agar bajarilgan ishlar sifati belgilangan standartlarga, qurilish me'yorlari va qoidalariga, ish hujjatlariga muvofiq bo'lmasa, u holda Buyurtmachi «Davarxitektqurilishnazorat» inspeksiyasining xulosasi asosida obyektini qabul qilish va uning uchun haq to'lashdan bosh tortishi, shuningdek Pudratchidan sifati zarur darajada bo'lmagan ishlar qiymatining 10 foizi miqdorida jarima undirish huquqiga ega.

5.6. Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun mazkur moddada nazarda tutilgan jazolardan tashqari shartnomani buzgan tomon ikkinchi tomonga boshqa tomon tarafidan qilingan xarajatlarda, mol-mulkning yo'qotilishi yoki shikastlanishida, shu jumladan boy berilgan foydada ifodalanadigan penya bilan qoplanmagan zararlarni qoplaydi.

5.7. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

6.TA'MIRLASH ISHLARI TUGALLANGAN OBYEKTNI QABUL QILIB OLISH

6.1. Ta'mirlash ishlari tugallangan ob'ektni qabul qilib olish shartnomani imzolash sanasida amalda bo'lgan belgilangan tartibga muvofiq mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlar tomonlar tarafidan bajarilgandan keyin, shuningdek ta'mirlash ishlari tugallangan obyektlarni foydalanishga qabul qilib olishning belgilangan qoidalariga binoan amalga oshiriladi.

6.2. Obyekt ularning foydalanishga tayyorligi to'g'risida Pudratchining yozma bildirishnomasi Buyurtmachi tomonidan olingan kundan boshlab 5 kun mobaynida qabul qilib olinadi.

6.3. Pudratchi qurilishi tugallangan obyektni qabul qilib olish boshlanishidan 5 kun oldin mazkur shartnomaning V bo'limiga muvofiq Buyurtmachiga Buyurtmachi tomonidan belgilangan tarkibda ikki nusxada ijro hujjatlarini beradi. Pudratchi Buyurtmachiga ushbu hujjatlar to'plami amalda bajarilgan ishlarga to'liq mos kelishini yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

6.4. Qabul qilib olingan paytdan boshlab obyekt Buyurtmachining mulkiga aylanadi.

7.TOMONLAR O'RTASIDA SHARTNOMAVIY NIZOLARNI HAL ETISH

7.1. Ushbu shartnoma asosida kelib chiqadigan har qanday nizolar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiliklari talablariga asosan G'ijduvon tumanlararo Iqtisodiy sudida hal etiladi

8.SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

8.1. O'zbekiston Respublikasi "Byudjet kodeksi"ning 122-moddasiga asosan byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning byudjetdan ajratiladigan mablag'lar bo'yicha tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib beruvchilar bilan tuzgan shartnomalari, shuningdek ularga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar ular g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin kuchga kirishi nazarda tutilgan.

8.2. Mazkur shartnoma 2022 yil «31» dekabrgacha amalda bo'ladi.

9. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH BO'YICHA QO'SHIMCHA SHARTLAR

9.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.09.2021-yildagi "Shartnomaviy munosabatlarni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6313-sonli Farmonining 3-qism v) bandiga muvofiq:

-Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosabatlar yuzasidan quyidagilarni kafolatlaydi:

-qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini;

-shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini;

-moddiy yoki har qanday turdagi imtiyoz olinmaganligini.

-Taraflar ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi harakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi. Taraflar ularning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslar

-Taraflar ularning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslar

-yuqoridagi majburiyatlar buzilganligi holatlari haqida xabar berilganligi uchun ularga tazyiq o'tkazilmasligini kafolatlaydi. Bir taraf korrupsiyaga qarshi amaldagi qonun hujjatlari, korrupsiya bo'yicha qo'llaniladigan siyosat va qoidalar talablari buzilgan taqdirda, boshqa tarafni yozma ravishda xabardor qilgan holda bu shartnomani bekor qilishga haqli. Ikkinchi tarafga tegishli

oldirishnoma yuborgan paytdan shartnoma bekor qilingan hisoblanadi. Bunday holda, birinchi tarafga yetkazilgan barcha zararni qoplaydi.

10. BOSHQA HOLATLAR.

10.1. Tomonlar shartnoma majburiyatlari yuzasidan o'zaro hamkorlik qilib turadilar.

11. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

«PUDRATCHI»

«Peshku Real Trassa» MCHJ

(Tovar yetkazib beruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchining nomi)

Manzil: Peshku tuman. Peshku MFY

Tel./faks

h/v 20208000605098430001

Bank nomi: ATB Xalq bank Peshku filiali
MFO 00674

OKONX 61128
STIR 306527027

«BUYURTMACHI»

G'ijduvon tuman hokimligi huzuridagi
Obodonlashtirish boshqarmasi

(byudjetdan mablag' oluvchi tashkilotning nomi)

Manzil: Gijduvon shahar. Paxtakor ko'chasi
№40

Tel./faks 57-26-8-95

shxb 401722860062157045204110009

byudjetdan mablag' oluvchi STIRi
203621572

OKONX 90211

G'aznachilik bo'linmasi nomi: G'ijduvon tumani
bo'yicha G'aznachilik bo'linmasi

G'azna h/v: 23 402 000 300 100 001 010

Bankning nomi: Markaziy bank Toshkent shahar
BBHKKM

MFO: 00014

INN: 201122919

Raxbar



N.Xalimova


(imzo)

Raxbar

M.A.Umarov

(imzo)



	Hujjat <u>elektron raqamli imzo</u> orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun QR Code ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	MUXSIN UMAROV ANVAROVICH
	Imzolangan sana	15.11.2022 16:38
	Hujjat kodi	NZ6177413288
	Hulosa kodi	OW3821677307

O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlarining g'azna ijrosi qoidalariga
8-ILOVA

2022 y. 15 « noyabr » G'ijduvon tuman xokimligi xuzuridagi Obodonlashtirish boshqarmasi va
«Peshku Real Trassa» MCHJ o'rtasida 965 005 000 so'm umumiy summaga tuzilgan 305-2-34-OB/2022
sonli shartnomaga

TO'LOVLAR JADVALI

Bob 110

Shaxsiy g'azna hisobvaraqa 401722860062157045204110009

(So'mda)


2022 y. oylar nomi.	Xarajatlar turi 7045 204			Jami
	42-33-100			
Yanvar				
Fevral				
Mart				
Aprel				
May				
Iyun				
Iyul				
Avgust				
Sentyabr				
Oktyabr				
Noyabr	965 005 000			965 005 000
Dekabr				
Jami yil bo'yicha	965 005 000			965 005 000

Jami **965 005 000** (To'qqiz yuz oltmish besh million besh ming) so'm
(Summa so'z bilan)

Yuqoridagi ko'rsatilgan summadan 965 005 000 so'm yoki shartnomaning umumiy summasidan 100% 2022 yil
noyabr oyida to'lanishi lozim.


Buyurtmachi taxbar




(imzo)

M.A.Umarov
F.I.O

Buyurtmachi bosh
buxgalter


(imzo)

M.X.Eshnazarov
F.I.O

G'aznachilik bo'linmasining
xodimi qabul qildi _____

(imzo)

20__ y. «__» _____

Buyurtmachi xodimi
qabul qildi _____

(imzo)

20__ y. «__» _____

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

OW3821677307

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **Armechan MFY Rabotoyim qishlog‘i hududida ichki yo‘llarni joriy ta‘mirlash ishlari**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma‘lumot: G‘ijduvon tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 15.11.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**G‘ijduvon tumani
yuridik markaz
bosh yuristkonsulti:**



D.R.SHOMURODOV

15.11.2022

Протокол закупочной комиссии по отбору наилучшего предложения лот № 168871 на приобретение Фиждувон туман Хокимлиги ҳузуридаги Ободонлаштириш бошқармаси балансидаги Армечан МФЙ Работойим қишлоғи ҳудудида ички йўлларни жорий таъмирлаш ишлари

Способ проведения электронный

Дата 08.11.2022

Время рассмотрения 08.11.2022 09:00

Закупочная комиссия Туман хокимлиги ҳузуридаги ободонлаштириш бошқармаси, (Далее – Комиссия) в составе:

Председатель комиссии	TUYEV UCHQUN XIKMATOVICH	Раҳбар	Ободонлаштириш бошқармаси
Секретарь комиссии	ZAYNIYEV ZAVQIDDIN SAVRIDDIN O'G'LI	Texnika xavfsizligi muhandisi	Obodonlashtirish boshqarmasi
Член комиссии	IBRAGIMOV ISOMIDDIN ISMAILOVICH	Texnik nazoratchi	Obodonlashtirish boshqarmasi
Член комиссии	ASHUROV ERKINJON BAHODIROVICH	Bosh muhandis	Obodonlashtirish boshqarmasi
Член комиссии	ESHNAZAROV MEXRIDDIN XAYRIDDINOVICH	Бош ҳисобчи	Ободонлаштириш бошқармаси
Член комиссии	Саломов Садриддин Насимович	Иқтисодчи	Ободонлаштириш бошқармаси

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 08.11.2022 года № лота 168871.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 80.00 / Весовой коэф. ценовой части: 20.00)

Мин. балл: 90

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуга по текущему ремонту автомобильных дорог
Подробное описание	Фиждувон туман Хокимлиги ҳузуридаги Ободонлаштириш бошқармаси балансидаги Армечан МФЙ Работойим қишлоғи ҳудудида ички йўлларни жорий таъмирлаш ишлари
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	969 007 876.00
Стартовая сумма	969 007 876.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Кафолат муддати (бажарилган ишларга бериладиган кафолат муддати)

Тип: Числовое значение

Описание: Кафолат муддати (бажарилган ишларга бериладиган кафолат муддати)

Обязательность: Не критично

Требование заказчика: Не менее: 18 месяц

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
УП GI JDUVON TUMAN YO LLARDAN	20	48	20	Системная		
"AFZAL GRAND SERVIS OMADI" MCHJ	20	48	20	Системная		
ME`MOR KOMPLEKS MЧЖ	20	24	20	Системная		
ООО PESHKU REAL TRASSA	20	40	20	Системная		

Критерий №2 Ишларни бажариш муддати (Ишларни бажариш муддатини қисқартириш ишнинг сифатига таъсир ўтказмаслиги шарт)

Тип: Числовое значение

Описание: Ишларни бажариш муддати (Ишларни бажариш муддатини қисқартириш ишнинг сифатига таъсир ўтказмаслиги шарт)

Обязательность: Не критично

Требование заказчика: В диапазоне: лучше – меньше: от 10 до 30 день

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
УП GI JDUVON TUMAN YO LLARDAN	20	10	20	Системная		
"AFZAL GRAND SERVIS OMADI" MCHJ	20	10	20	Системная		
ME`MOR KOMPLEKS MЧЖ	20	10	20	Системная		
ООО PESHKU REAL TRASSA	20	10	20	Системная		

Критерий №3 Корхонанинг қурилиш монтаж ишлари давомида қурилиш машина механизмлари мавжудлиги

Тип: Текстовое значение

Описание: Корхонанинг қурилиш монтаж ишлари давомида қурилиш машина механизмлари мавжудлиги ёки ижара шартномаси

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
УП GI JDUVON TUMAN YO LLARDAN	20	маълумотлар илова қилинди	18	Экспертная		
"AFZAL GRAND SERVIS OMADI" MCHJ	20	маълумотлар тўлиқ илова қилинди	10	Экспертная		
ME`MOR KOMPLEKS MЧЖ	20	машина механизмлари илова қилинди	20	Экспертная		
ООО PESHKU REAL TRASSA	20	Иловадаги файлларда	20	Экспертная		

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
		маълумотлар тўлиқ кўрсатилган				

Критерий №4 Ташкилотнинг охириги 3 йиллик хисоботи ҳамда ҳозирги кундаги молиявий ҳолати

Тип: Текстовое значение

Описание: Ташкилотнинг охириги 3 йиллик хисоботи ҳамда ҳозирги кундаги молиявий ҳолати

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
УП GI JDUVON TUMAN YO LLARDAN	20	маълумотлар илова қилинди	18	Экспертная		
"AFZAL GRAND SERVIS OMADI" MCHJ	20	маълумотлар тўлиқ илова қилинди	7	Экспертная		
ME`MOR KOMPLEKS MЧЖ	20	юкланди	20	Экспертная		
ООО PESHKU REAL TRASSA	20	Иловадаги файлларда маълумотлар тўлиқ кўрсатилган	20	Экспертная		

Критерий №5 Иштирокчининг корхонанинг доимий ишчи ходимлари тўғрисида ҳамда муҳандис техник ходимлар диплом нусхалари

Тип: Текстовое значение

Описание: Иштирокчининг корхонанинг доимий ишчи ходимлари тўғрисида ҳамда муҳандис техник ходимлар диплом нусхалари

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
УП GI JDUVON TUMAN YO LLARDAN	20	маълумотлар илова қилинди	20	Экспертная		
"AFZAL GRAND SERVIS OMADI" MCHJ	20	маълумотлар тўлиқ илова қилинди	10	Экспертная		
ME`MOR KOMPLEKS MЧЖ	20	ишчи ходимлари тўғрисида ҳамда муҳандис техник ходимлар диплом нусхалари	20	Экспертная		
ООО PESHKU REAL TRASSA	20	Иловадаги файлларда маълумотлар тўлиқ кўрсатилган	20	Экспертная		

Критерий №6 Иш тажрибаси (Шу соҳада олдин қилинган ишлар руйхати ва буюртмачилар берган тавсифномалари)

Тип: Текстовое значение

Описание: Иш тажрибаси (Шу сохада олдин килинган ишлар руйхати ва буюртмачилар берган тавсифномалари)

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
УП ГИ ЖДУВОН ТУМАН YO LLARDAN	20	маълумотлар илова қилинди	20	Экспертная		
"AFZAL GRAND SERVIS OMADI" MCHJ	20	маълумотлар тўлиқ илова қилинди	15	Экспертная		
ME`MOR KOMPLEKS MЧЖ	20	ишлар руйхати ва буюртмачилар берган тавсифномалари юкланди	10	Экспертная		
ООО PESHKU REAL TRASSA	20	Иловадаги файлларда маълумотлар тўлиқ кўрсатилган	20	Экспертная		

Критерий №7 Иш тажрибаси

Тип: Текстовое значение

Описание: Иш тажрибаси (Шу сохада етарли иш стажи)

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
УП ГИ ЖДУВОН ТУМАН YO LLARDAN	20	маълумотлар илова қилинди	20	Экспертная		
"AFZAL GRAND SERVIS OMADI" MCHJ	20	маълумотлар тўлиқ илова қилинди	20	Экспертная		
ME`MOR KOMPLEKS MЧЖ	20	7 йил	20	Экспертная		
ООО PESHKU REAL TRASSA	20	Иловадаги файлларда маълумотлар тўлиқ кўрсатилган	20	Экспертная		

Критерий №8 Танловда иштирок этадиган корхонанинг солиқ ва бошқа мажбурий тўловлардан қарздорлиги ёқлиги тўғрисида

Тип: Текстовое значение

Описание: Танловда иштирок этадиган корхонанинг солиқ ва бошқа мажбурий тўловлардан қарздорлиги ёқлиги тўғрисида маълумот

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
УП ГИ ЖДУВОН ТУМАН YO LLARDAN	20	маълумотлар илова қилинди	20	Экспертная		

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
"AFZAL GRAND SERVIS OMADI" MCHJ	20	маълумотлар тўлиқ илова қилинди	20	Экспертная		
ME`MOR KOMPLEKS MCHJ	20	солиқ ва бошқа мажбурий тўловлардан қарздорлиги ёқлиги тўғрисида малумот	20	Экспертная		
ООО PESHKU REAL TRASSA	20	Қарздорлик мавжуд эмас	20	Экспертная		

Критерий №9 Коррупцияга карши талаблар (684-Конун 13-моддатига риоя этилиши шарт)

Тип: Текстовое значение

Описание: Коррупцияга карши талаблар (684-Конун 13-моддатига риоя этилиши шарт)

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
УП GI JDUVON TUMAN YO LLARDAN	20	сўров шакли тўддириб тасдиқланиб изохида кўрсатилган тасдиқловчи хужжатлар юкланди	20	Экспертная		
"AFZAL GRAND SERVIS OMADI" MCHJ	20	маълумотлар тўлиқ илова қилинди	20	Экспертная		
ME`MOR KOMPLEKS MCHJ	20	Коррупцияга карши талаблар	20	Экспертная		
ООО PESHKU REAL TRASSA	20	Иловадаги файллларда маълумотлар тўлиқ кўрсатилган	20	Экспертная		

Критерий №10 Банкротлик

Тип: Текстовое значение

Описание: Ўзига нисбатан жорий этилган банкротлик тартиб-таомилларининг мавжуд эмаслиги тўғрисида маълумот тасдиқлангани.

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
УП GI JDUVON TUMAN YO LLARDAN	20	сўров шакли тўддириб тасдиқланиб изохида кўрсатилган тасдиқловчи хужжатлар юкланди	20	Экспертная		
"AFZAL GRAND SERVIS OMADI" MCHJ	20	маълумотлар тўлиқ илова қилинди	20	Экспертная		

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ME`MOR KOMPLEKS MЧЖ	20	ФАЙЛ ИЛОВА ҚИЛИНДИ	20	Экспертная		
ООО PESHKU REAL TRASSA	20	Иловадаги файлларда маълумотлар тўлиқ кўрсатилган	20	Экспертная		

Критерий №11 Иштирокчининг йиллик айланма маблағи ва х/р.да қолдиқнинг мавжуд ёки йўқлиги

Тип: Текстовое значение

Описание: Иштирокчининг йиллик айланма маблағи ва х/р.да қолдиқнинг мавжуд ёки йўқлиги

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
УП GI JDUVON TUMAN YO LLARDAN	20	сўров шакли тўддириб тасдиқланиб изохида кўрсатилган тасдиқловчи хужжатлар юкланди	10	Экспертная		
"AFZAL GRAND SERVIS OMADI" MCHJ	20	маълумотлар тўлиқ илова қилинди	20	Экспертная		
ME`MOR KOMPLEKS MЧЖ	20	БАНК МАЪЛУМОТИ	0	Экспертная		
ООО PESHKU REAL TRASSA	20	Иловадаги файлларда маълумотлар тўлиқ кўрсатилган	20	Экспертная		

Критерий №12 Иштирокчи корхонанинг манзили, кадастр хужжати ёки ижара шартномаси

Тип: Текстовое значение

Описание: Иштирокчи корхонанинг манзили, кадастр хужжати ёки ижара шартномаси

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
УП GI JDUVON TUMAN YO LLARDAN	20	сўров шакли тўддириб тасдиқланиб изохида кўрсатилган тасдиқловчи хужжатлар юкланди	20	Экспертная		
"AFZAL GRAND SERVIS OMADI" MCHJ	20	маълумотлар тўлиқ илова қилинди	20	Экспертная		
ME`MOR KOMPLEKS MЧЖ	20	ижара шартномаси	20	Экспертная		
ООО PESHKU REAL TRASSA	20	Иловадаги файлларда маълумотлар тўлиқ	20	Экспертная		

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
		кўрсатилган				

Критерий №13 Мехнатни муҳофаза қилишда санитария қоидалари ва техника хафсизлиги бўйича йуриқномалар

Тип: Текстовое значение

Описание: Техника хафсизлиги қоидалари тулик риоя қилиниши бўйича талаблар ва йуриқномалар

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
УП GI JDUVON TUMAN YO LLARDAN	20	сўров шакли тўддириб тасдиқланиб изохида кўрсатилган тасдиқловчи хужжатлар юкланди	20	Экспертная		
"AFZAL GRAND SERVIS OMADI" MCHJ	20	маълумотлар тўлиқ илова қилинди	20	Экспертная		
ME`MOR KOMPLEKS MЧЖ	20	йуриқномалар ЮКЛАНДИ	20	Экспертная		
ООО PESHKU REAL TRASSA	20	Иловадаги файллarda маълумотлар тўлиқ кўрсатилган	20	Экспертная		

Критерий №14 Бахтсиз ходисалар булган вазиятларда ишчи ходимларнинг хаёти сугурталанганлиги

Тип: Текстовое значение

Описание: Бахтсиз ходисалар булган вазиятларда ишчи ходимларнинг хаёти сугурталанганлиги

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
УП GI JDUVON TUMAN YO LLARDAN	20	сўров шакли тўддириб тасдиқланиб изохида кўрсатилган тасдиқловчи хужжатлар юкланди	20	Экспертная		
"AFZAL GRAND SERVIS OMADI" MCHJ	20	маълумотлар тўлиқ илова қилинди	20	Экспертная		
ME`MOR KOMPLEKS MЧЖ	20	сугурта	15	Экспертная		
ООО PESHKU REAL TRASSA	20	Иловадаги файллarda маълумотлар тўлиқ кўрсатилган	20	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Применение преференции	Общее значение (UZS)	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
УП GI JDUVON TUMAN YO LLARDAN	969 007 876.00	965 123 458.00 UZS	965 123 458.00	00.00	965 123 458.00	31.10.2022 09:54:50	19.47937
"AFZAL GRAND SERVIS OMADI" MCHJ	969 007 876.00	960 894 333.00 UZS	960 894 333.00	00.00	960 894 333.00	31.10.2022 12:13:39	19.56511
ME`MOR KOMPLEKS MЧЖ	969 007 876.00	940 000 000.00 UZS	940 000 000.00	00.00	940 000 000.00	31.10.2022 12:27:21	20
ООО PESHKU REAL TRASSA	969 007 876.00	965 005 000.00 UZS	965 005 000.00	00.00	965 005 000.00	31.10.2022 12:40:44	19.48176

Итоговая оценка участников включая финансовый части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
УП GI JDUVON TUMAN YO LLARDAN	76	19.47937	95.47937
"AFZAL GRAND SERVIS OMADI" MCHJ	69.1432	19.56511	88.70831
ME`MOR KOMPLEKS MЧЖ	70	20	90
ООО PESHKU REAL TRASSA	80	19.48176	99.48176

Закупочная комиссия по отбору наилучшего предложения лот № 168871 от 08.11.2022 года на приобретение Фиждувон туман Хокимлиги ҳузуридаги Ободонлаштириш бошқармаси балансидаги Армечан МФЙ Работойим қишлоғи ҳудудида ички йўлларни жорий таъмирлаш ишлари определила победителем:

ООО PESHKU REAL TRASSA
306527027

и резервный исполнитель: УП GI JDUVON TUMAN YO LLARDAN (201148093)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Председатель комиссии	TUYEV UCHQUN XIKMATOVICH	Согласен	
Член комиссии	IBRAGIMOV ISOMIDDIN ISMAILOVICH	Согласен	
Член комиссии	ASHUROV ERKINJON BAHODIROVICH	Согласен	
Член комиссии	ESHNAZAROV MEXRIDDIN XAYRIDDINOVICH	Согласен	
Член комиссии	Саломов Садриддин Насимович	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП